



**MAXKAMOVA SHOXIDA
RAXMATULLAYEVNA**

**MUSIQA O'QITISH
METODIKASI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAXKAMOVA SHOXIDA RAXMATULLAYEVNA

MUSIQA O'QITISH METODIKASI

60110500- "BOSHLANG'ICH TAL'IM" YO'NALISHI

TALABALARI UCHUN

(O'QUV QO'LLANMA)

CHIRCHIQ -2023

UO'K 373;78.03
KBK74.200;85.31
M-28

Maxkamova Sh.R. / Musiqa o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma
– Chirchiq.: «Nazokathon ziyo print», 2023. – 184 bet.

Taqrizchilar: **O.M.Jabborova** -
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim
metodikasi kefedrasi mudiri, pf.f.d. (PhD), dotsent.

A.Q.Lutfullayev -
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti Musiqa madaniyati fakulteti dekani,
professor.

Kadrlar tayyorlash va ularning sifatini yanada rivojlantirish, jahon talablari darajasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash barcha sohalar qatori ta'lim sohasida ham eng dolzarb, muhim masalalardan biri hisoblanadi.

– Boshlang'ich ta'lim bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlagan «Musiqa o'qitish metodikasi» nomli o'quv qo'llanma bugungi rivojlanib borayotgan zamon talablari asosida xorijiy tajribalarga tayanib ishlab chiqildi

Qo'llanmada fanning nazariy va amaliy mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim mavzulari yuzasidan nota yozuvlari, atamalarning izohli lug'ati, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, talabalar o'quv ishlari va mashhur kompozitorlar ijodiy ishlari namunalaridan iborat. Qo'llanmada mavzular ketma-ketligining uzviyligi, ularning mustaqil ta'lim bilan bog'liqligi ta'minlangan. Xorijiy hamda mahalliy adabiyotlar uyg'unligida fan dasturiga mos holda ishlab chiqilganligi yanada ahamiyatlidir.

Mazkur o'quv qo'llanma talabalarning fan doirasida ta'lim olishida, mustaqil ijod qilishida va o'quv jarayonidagi bilimlarni o'zlashtirishi sifatini oshirishida, ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablar darajasida bilim olishlariga muhim omil bo'lib xizmat qiladi

ISBN 978-9910-9413-8-2

© Maxkamova Sh.R., 2023 y.
© «Nazokathon ziyo print», 2023 y.

Kirish

Yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, shunga ko'ra san'atning eng muhim va keng xalq ommasiga kirib boruvchi turlaridan biri musiqa san'atidir. Unda badiiy mazmun tovushlar (ohang) orqali bayon etiladi va musiqaning o'ziga xos ifoda vositalarini o'zaro bog'lovchi muayyan qoidalarga asoslanadi.

Har qanday musiqani cholg'u sozida ijro etish yoki kuylash uchun musiqa va uni o'qitish metodikasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, mazkur fanni o'qitish dastlab musiqa asarlarini ijro etish va ulardagi mavjud tovush va intervallar munosabatlari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishni qamrab oladi.

Musiqaning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi materiallar musiqa va uning nazariyasiga oid fanlarda aks ettirilgan. Musiqa va uni o'qitish metodikasi fani musiqa grammatikasi, musiqaning asosiy unsurlarini va ayniqsa, kuyni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu fan doirasida jumladan, musiqiy tovush hususiyatlari, uning nota matnida ifodalanishi texnologiyasi, musiqaning asosiy ifoda vositalari: metr-ritm, lad, garmoniya; ikki tovushning nisbati (interval), uch va undan ortiq tovushlar nisbati (akkord) va ular orqali ifodalanadigan musiqiy mazmun; lad, tonalliklarning musiqiy mazmunni ifodalash imkoniyatlari va metodikasi o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida musiqa fani bo'yicha o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Shunga binoan musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijobiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari – adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Ushbu adabiyotni dars jarayonida qo'llashning maqsadi o'quvchilarning musiqa madaniyatini, estetik didini va musiqiy

qobiliyatini rivojlantirishga, boshlang'ich maktab hayotida va mehribonlik uylarida bayram tadbirlarini va to'garaklar tashkil etishda musiqa tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishga yordam beruvchi vosita bo'lib xizmat qilishidir. Ushbu ko'nikmalar qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, milliy kuy va qo'shiqlarni idrok etish orqaligina amalga oshiriladi.

Musiqa ta'limidan Davlat ta'lim standartlari asosidagi yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Musiqa fanini o'tishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- O'quvchilarning milliy musiqani idrok etish malakalarini o'stirish.
- Qo'shiq kuylash malakalarini o'stirish.
- Musiqiy-nazariy savodxonlikni o'stirishni shakllantirish.
- O'quvchilarning musiqiy - ritmik faoliyatlarini shakllantirib borish.

O'quvchilarda yuqoridagi ko'nikmalarni shakllantirish dars jarayonida nazariy va amaliy mashg'ulotlar, musiqa o'qitish uslubiyotini o'rgatish vositasida bajariladi.

Ushbu kitob mazmunan boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr va simfonik orkestrlar faoliyati, musiqiy sahna asarlari, xalq musiqasi va professional musiqa, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblari bilishni, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, ustozona, mumtoz musiqa, qardosh va jahon xalqlari musiqasi, maqom va shashmaqom, o'zbek milliy musiqasi kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Hozirgi kun o'quvchisi umumta'lim fanlaridan quyidagilarini bilishi kerak:

- musiqa savodini o'rgatishda matematika va fizika fani juda zarur.
- vokal-xor malakalari mavzusida va qo'shiq o'rgatish va anatomiya, bola fiziologiyasi,

- qo'shiq o'rgatishda adabiyot fani bilan.
- musiqa tarixi, kompozitor va bastakorlarning ijodini o'rgatishda tarix fani bilan.
- musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish faoliyatida tasviriy va raqs san'ati bilan.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida boshqa fanlar kabi musiqa faniga ham yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. O'quvchida musiqa bo'lgan havas, u orqali go'zallikni his eta olish va uni hayotga tatbiq etish, qo'shiq kuylash, musiqiy savodxonlikni oshirish, musiqa tinglab, uni tahlil eta olish, musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish kabi faoliyatlarni o'quvchiga singdirish barobarida uni maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilariga o'rgatish metodikasini bilishi nazarda tutiladi.

1-Mavzu: TOVUSH, TOVUSHQATOR. MUSIQA DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Musiqaning elementar nazariyasi haqida tushuncha.
2. Musiqiy tovushlarning nazariy xususiyatlari.
3. Musiqa darslarining maqsad va vazifalari.
4. Musiqa mashg'ulotlari va ularning faoliyat turlari.

Musiqaning elementar nazariyasi kursida tovush so'zi ikki xil tushunchani bildiradi: birinchisi – **fizik holatdagi tovush**; ikkinchisi – **sezgi holatidagi tovush**dir.

1. Masalan, biror egiluvchan jism, cholg'u asbobi torining tebranishi natijasida havoda uzunasiga taralgan to'liqinli tebranishlar hosil bo'ladi. Bu tebranishlar **tovush to'liqinini** hosil qiladi. Ular tovush manбайдan turli tomonlarga aylanasimon tarqaladi.

Ushbu hodisaning umumiy zanjiri quyidagicha amalga oshadi: *tovush to'liqini manbai – tovush to'liqlari – eshitish organiga tovush to'liqlarining ta'sir etishi – eshitish analizatorlari orqali qabul qilingan qo'zg'atuvchi ta'sirining bosh miyaga uzatilishi.*

Fizik nuqtai nazardan, tebranishlar o'lchovi sifatida tebranadigan jismning bir sekunddagi tebranishlari soni **gerts¹ (gts)** qabul qilingan.

2. Yangragan tovush to'liqlari eshitish organi tomonidan qabul qilingach, unga ta'sir etadi va asab tuzilmasi (analizator) orqali bosh miyaga o'tib, tovush sezgisini qo'zg'atadi.

Ma'lumki, biz kundalik hayotda juda ko'p, xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Lekin bu tovushlarning hammasi ham musiqada qo'llanila bermaydi. Eshitish organlarimiz **musiqaviy** tovushlar bilan **shovqinli** tovushlarni bir-biridan ajratish qobiliyatiga ega. Shovqinli tovushlar, masalan, qarsillash, gumburlash, g'ijirlash, shivirlash, dukillash va hokazolar aniq tovush to'liqini balandligiga ega emas, Shuning uchun ham bu tovushlar musiqada qo'llanilmaydi.


¹ Gerts – ushbu hodisani ochgan fizik olim nomiga qo'yilgan atama.

Musiqaviy tovushning nazariy jihatdan to'rt xil fizik hususiyati mavjud. Ular **balandlik**, **uzunlik** (cho'zim), **qattiqlik** (tovush kuchi) va **tembr** (tovush tusi) dan iborat.

Yangrayotgan **tovushning balandligi** tebranayotgan egiluvchan jismning tebranish tezligi, ya'ni chastotasiga bog'liqdir. Tebranish qanchalik tez bo'lib tursa, tovush Shunchalik baland bo'ladi va aksincha, tebranish qanchalik sust bo'lsa, tovush Shunchalik past bo'ladi.

Yangrayotgan **tovushning cho'zimi** tebranayotgan jismning to'liqin amplitudasiga bog'liqdir. Tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik xarakteri o'zgarmaydi, lekin musiqa nuqtai nazardan tovushning cho'zimi uning yana bir hususiyati bo'lib, muhim ahamiyatga egadir. Tovush cho'zimi tovush manbai tebranishining davom etishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, tovush chiqa boshlaganda tovush manbaining tebranishi qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadi. Bunda albatta, tovush manbai bo'lgan jism erkin tebranishi shart.

Yangrayotgan **tovushning qattiqligi** tebranish harakatining kuchiga, ya'ni, tovush manbai bo'lgan jismning tebranish kengligiga bog'liqdir. Tebranish harakatlari amalga oshiriladigan fazo doirasi **tebranish amplitudasi** (kengligi) deyiladi



Tebranish amplitudasi qanchalik katta bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha.

Tembr deb tovushning sifat hususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr hususiyatlarini ifodalashda his-tuyg'ularga taalluqli turli iboralar qo'llaniladi, masalan: mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor, kuychan tovush deyishadi va h.k.

Ma'lumki, har bir cholg'u asbobi yoki inson ovozi o'ziga xos tembrga egadir. Xilma-xil cholg'u asboblari eshitiladigan ma'lum balandlikdagi tovushlar o'zlarining rang-barangliklari bilan bir-